

**BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL IQTISODIYOT"NING
O'RNI VA AHAMIYATI**

Kucharov Jahongir Ovlayarovich
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.f.d. v.b.professor

Annotatsiya

Ushbu maqolada barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqolada yashil iqtisodiyot va "yashil o'sish"ni ta'minlanishi tahlil qilingan hamda yashil iqtisodiyotni joriy etish jarayonini, uning hozirgi holati, istiqbollarini ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o'sish, ijtimoiy qamrov, atrof-muhit, barqaror rivojlanish.

Introduction

Kirish

Davlatimiz rahbari havo va suvning ifloslanishi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelayotgani, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetayotgani, bunga javoban mamlakatimizda uch yil avval "Yashil makon" umummilliy loyihasi boshlanganligini alohida ta'kidladi.

O'zbekiston atrof-muhit va iqlim o'zgarishlari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan ikkita muhim rezolyusiyaning tashabbuskori bo'lganligi, ayni vaqtda "yashil" energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanayotganiga urg'u berdi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz yetakchisi bu boradagi ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2025 yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilish haqidagi taklifi alohida e'tirofqa loyiq.

Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Yer aholisi ko'payishda davom etmoqda, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil ravishda qisqarmoqda. Ekspertlar vaziyatni o'nglash uchun jahon iqtisodiyotida "yashil taraqqiyot" tamoyillarini joriy etish zarurligini ta'kidlamoqda. Shuning uchun majlisda yil nomi bilan belgilangan eng muhim vazifalar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqilishi belgilandi. Ushbu dasturda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi aytiladi.

Mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-

4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi¹ tasdiqlangan. Unga ko‘ra:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash belgilandi;

Adabiyotlar tahlili

Yashil iqtisodiyotni iqtisodiyotga joriy etish masalasi juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan va e‘tirof etilgan. Bunga asosiy sabab yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida e‘tirof etilishidir. Yashil iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanish manbasi sifatida foydalanish imkoniyatlari mavjud.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015 yil 12 dekabr) majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning innovatsion moliyaviy vositalarni ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori imzoladi.

Iqtisodiy adabiyotda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989 yilda qo‘llanilganligiga qaramasdan uning mazmuni hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda “yashil iqtisodiyot” mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlari sifatida talqin qilinsa, ba’zi adabiyotlarda “yashil iqtisodiyot” tabiatga ko‘maklashuvchi va naf keltiruvchi ilg‘or texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, boshqa bir tadqiqotlarda esa “yashil iqtisodiyot” – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish hisoblanib, uning asosini sof yoki “yashil” texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.


“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to‘liq ta’rifi UNEP (Birlashgan Millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik xavflar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiy o‘tish yo‘llari izlash, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslarning yetishmovchiligi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga kirishadi. Ushbu fikrni rus olimlari T. V. Zaxarova, V. V. Volodkova A. A. Trofimchuklar ham ma’qullashadilar.

L.G. Melnik, I.N. Sotnik, I.M. Burlakova kabi ilmiy tadqiqotchilar fikr-mulohazalarida yashil iqtisodiyotni iqtisodiyotning yangi turi sifatida konseptual jihatdan ajratib ko‘rsatish zarurligiga qaratilgan, bunda yashil taraqqiyot jamiyatning barcha sohalariga ta’sir qiladi va hukumat, iqtisodiyot va jamiyatning o‘zaro hamkorligini ta‘minlaydi deb ta’kidlaydilar.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

Shuningdek, o'zbek olimlari Isadjonov.A.A, Mustafaqulov.Y.B yashil iqtisodiyotni XXI asrning yangi ijtimoiy-ekologik hodisasi deb hisoblaydi [5]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni tahlil qismini amalga oshirishda uchun biz, xususan, bugungi kunda dunyo bo'yicha "yashil" iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan "Yashil" o'sish indeksi xalqaro reyting ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlarda keltirilgan bo'lib, indeks 4 ta maqsadli yo'nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo'lib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi. Ushbu reytingda O'zbekiston ham ishtirok etib kelmoqda.



rasm. "Yashil o'sish" indeksining 4 ta maqsadli yo'nalishlari

O'zbekistonning "Yashil o'sish" indeksida quyida keltirilgan yo'nalish ko'rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega:

- Energiya – qayta tiklanuvchi energiya ta'minoti;
- Transport – elektr transportlaridan samarali foydalanish;
- Suv tizimi – irrigatsiya tizimlaridan oqilona foydalanish ;
- Qishloq xo'jaligi – mineral o'g'itlardan foydalanishni kamaytirish;
- O'rmon xo'jaligi – mavjud daraxtlar soni kamayib ketishi;
- Chiqindilar – qayta ishlash sanoatining rivojlanishi.

Natija va tahlillar. "Yashil" o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori "yashil" o'sish ko'rsatkichlariga ega. (1-jadval)

1-jadval

"Yashil o'sish" indeksida top 5-lik davlatlar (Yevropa hududi bo'yicha)

Mamlakat	Umumiy ko'rsatkichi	Reytingdagi o'rni	Holati
Shvetsiya	78.72	1	Yuqori
Daniya	76.77	2	Yuqori
Chexiya	76.74	3	Yuqori
Germaniya	75.83	4	Yuqori
Avstriya	75.22	5	Yuqori

Manba: Green Growth Index

Indeksning eng yuqori o‘rinlarini Shvetsiya davlati egallab umumiy 78.72 balni qo‘lga kiritgan. Jumladan, Shvetsiya resurslardan samarali va barqaror foydalanish darajasiga ko‘ra – 87.78, tabiat mulklarini himoyalash – 78.14, “yashil iqtisodiyot” imkoniyatlarini joriy etish holati bo‘yicha 59.53, ijtimoiy qamrov darajasi bo‘yicha 94.06 ko‘rsatkichlarini qayd etgan. Daniya o‘z navbatida 2020-yilda o‘tkazilgan “Yashil o‘shish” indeksiga ko‘ra 1-raqamli davlat hisoblanib kelar edi. 2022-yilga kelib esa 76.77 ko‘rsatkichni qayd etib, ushbu reytingda davlatlar ichida 2-o‘rinni qayd etdi. Yevropa davlatlari havo ifloslanishiga qarshi kuchli qonunchiliklarni joriy etgan bo‘lishiga qaramay, ushbu jadvalda qayd etilgan davlatlarning “yashil” o‘shish indkeksi 2020-yilga nisbatan biroz pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa

Barqaror rivojlanishni ta‘minlashda “yashil iqtisodiyot”ning ahamiyatini tahlil etish orqali qator xulosalar qilish mumkin. “Yashil iqtisodiyot” barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur maqsadga erishish uchun barqaror rivojlanishning ijtimoiy omillariga keng e‘tibor qaratish lozim.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni jadallashtirish mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shu nuqtayi nazardan

- “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shishni ta‘minlash bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish;
- “yashil” iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini samarali yuritish;
- resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish;
- “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;
- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish masalalariga e‘tibor qaratish zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “yashil iqtisodiyot” – butun dunyo oldidagi talab. O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tayotganligi nafaqat uning dunyo hamjamiyati oldidagi nufuzini, balki xalqimizning salomatligi, farovon va uzoq umr ko‘rishiga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 2 dekabrda “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
2. Satbyul, K. E., Ho, K., Yeora, C. (2014). A New Approach to Measuring Green Growth: Application to the OECD and Korea. *Futures*, 63, 37–48. <https://doi.org/10.1016/j.futures.2014.08.002>
3. Caprotti, F., Bailey, I. (2014). Making Sense of the Green Economy. *Geografiska Annaler: Series B, Human Geography*, 96(3), 195–200. <https://doi.org/10.1111/geob.12045>

4. Lane, R. (2010). The Crisis from the Point of View of Evolutionary Economics. International Journal of Social Economics, 37(6), 466–471. <https://doi.org/10.1108/03068291011042337>
5. Навстречу «зеленой» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности /А.Штайнер, Р.Айрис, С.Бесса.: ЕНЕП/ Гридарандаль, 2011. С. 17

MUALLIF ANKETASI

1.	Familiya	Kucharov
2.	Ismi	Jahongir
3.	Sharifi	Ovlayarovich
4.	Ish (o'qish) joyi (to'liq)	TITU
5.	Egallab turgan lavozimi	"Iqtisodiyot" fakulteti dekani
6.	Ilmiy daraja	i.f.f.d.
7.	Ilmiy unvon	Professor
8.	Telefon raqami (mobil va uy)	+998 99 720 20 60
9.	e-mail	@j977070707
10.	Maqolaning nomlanishi	Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni va ahamiyati
12.	Maqola taqdim etilayotgan to'plam yo'nalishi	1- yo'nalish